
“O‘zbekiston tarixi” jurnali



“O‘zbekiston tarixi” jurnali 1998 yildan boshlab Fanlar akademiyasi Tarix instituti tomonidan bir yilda 4 marta nashr qilib kelinmoqda. Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0051-guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnalning ixtisoslashuvi: ilmiy-amaliy;

Nashrning tili: maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi;

Hajmi: 5,5 nashr tobog’ida - 100 sahifada.

Tarqatiladigan hududi: Jahon ilmiy markazlari, Markaziy Osiyo Respublikalari, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari.

Jurnalda:

- O'zbekiston tarixi bo'yicha tadqiqotlarning eng yangi natijalarini mujassamlashtirgan, jahon tarix fani nazariyasi va metodologiyasiga asoslangan maqolalar chop etiladi.

- tarix va yondosh gumanitar fanlarda erishilgan eng yangi ilmiy natijalar, kashfiyotlar haqida axborot beriladi;

- jahon tarixi va tarixshunosligi fanida kechayotgan jarayonlarni yorituvchi maqolalarni chop etiladi;

- tarixiy ta'lim rivoji masalasiga bag’ishlangan maqolalar chop etiladi;

- tarix fani sohasidagi ilmiy anjumanlar, uchrashuvlar, yangiliklardan ilmiy jamoatchilikni muntazam xabardor qilib boriladi.

Moddiy ta'minoti – Respublikadagi obuna va Tarix instituti mablag’idan amalga oshiriladi.

Bosh muharrir



Azamat Hamid o‘g‘li Ziyo

Tarix fanlari doktori, akademik

O‘zR FA Tarix instituti direktori

e-mail: info@fati.uz

Ma’lumoti: Toshkent davlat universitetining (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitet) Sharq tillari fakulteti, Eron bo‘limini tamomlagan (1985).

Ilmiy darajasi: Tarix fanlari nomzodi (1990), Tarix fanlari doktori (1999), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2023)

Ilmiy yo‘nalishi: o‘zbek davlatchiligi tarixi, Amir Temur va temuriylar davri tarixi, temuriylar va boburiylar davri Hindiston tarixnavisligi. Ilmiy tahririyatchiligi: “O‘zbekiston tarixi”, “Ilm-fan va innovatsion rivojlanish” (O‘zbekiston), “Tafakkuri ta’rix”, “Anvori ilm”, “Payomi donishkada” (Tojikiston) jurnallari tahrir hay’ati a’zosi.;

Xalqaro (elllararo) faoliyati: Turkiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Italiya va Belgiyada o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanlarda ma’ruzalar qilgan

Manzil:	100080, O'zbekiston Toshkent, Shahrisabz 5-tor ko'chasi
Telefon:	(+998-71) 233-61-92
E-mail:	uzbekistontarixi.jurnal@mail.ru

Maqolalarni qabul qilish qoidalari